XALQ DEPUTATLARI CHIROQCHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Chiroqchi, +998 97 617 1952, kengashchiroqchi@gmail.com

2025-yil 9-dekabr VII-12-79-4-66-K/25 Chiroqchi tumani

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Chiroqchi tumanidagi mavjud geografik obyekt (29 ta qabriston va beshta ko‘cha)larga nom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 05-19-10298-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini, shuningdek “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 07-15/5832-sonli komissiya xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish, ekspert komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 05-19-10298-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosalarini, shuningdek “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 07-15/5832-sonli komissiya xulosasini asos uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 25-iyundagi 05-19-10298-sonli yig‘ilish bayonnomasi va “Geografik obyektlarga

nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan, tumandagi mavjud 29 ta qabristonlarning qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan nomlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Iftihor mahalla fuqarolar yig‘inidagi nomsiz ko‘chaga “Quyi Langar”, 3 ta nomsiz tor ko‘chaga: ”Quyi Langar-1”, “Quyi Langar-2”,”Quyi Langar-3”, berk ko‘chaga “Quyi Langar” ko‘chasi deb nom berish taklifi ma’qullansin

4.Tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Norqobilov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Abdullayev), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i bilan birgalikda:

- bir oy muddatda tumandagi mavjud qabristonlar va ko‘chalarni ushbu qarorga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarini o‘rnatish va olib borilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni belgilangan muddatda “Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari” bo‘yicha tuman komissiyasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

- tumandagi mavjud qabristonlarning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish;

- o‘zgargan qabriston nomlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda boshqa tegishli tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirsinlar.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Rayimqulov), “Chiroqchi” gazetasi tahririyatiga(H.Egamberdiyev):

- O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili haqida”gi Qonunlari talablari asosida olib borilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ishtemirov) hamda Chiroqchi tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (G.Haqberdiyeva) zimmasiga yuklatilsin.

7.Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiyaga raislik qiluvchi **ELMURODOV FARHOD BAYMANOVICH**

Xalq deputatlari Chiroqchi tumani Kengashining
2025-yil 9-dekabrdagi
VII-12-79-4-66-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Chiroqchi tumanidagi reyestrga kiritilishi lozim bo‘lgan qabristonlar ro‘yxati

T/R	Geoografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Qabriston	Langar MFY	nomsiz	**Mevali**	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Qabriston	Langar MFY	nomsiz	Xujag‘arovli	**Xo‘jag‘arovli -** “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Qabriston	Langar MFY	nomsiz	Gulgun	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. (Qadimgi qishloq nomiga qo‘yilgan).

4.	Qabriston	Langar MFY	nomsiz	Tulako‘l	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.(Tula-arabcha so‘z bo‘lib,”uzun,cho‘zinchoq” ma’nosini anglatadi. Qabriston yonida ko‘l borligi uchun shu nom bilan atalgan).
5.	Qabriston	Langar MFY	nomsiz	Tutlibuloq	Qonun hujjatlari talabiga muvofiq.
6.	Qabriston	Oqoltin MFY	nomsiz	Odir bobo	**Odirbobo** -“Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Qabriston	Olmazor MFY	nomsiz	Past Qoratelpak	**Yuqori Qoratelpak** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Qabriston	Quruqsoy MFY	nomsiz	Qiyot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Qabriston	Quruqsoy MFY	nomsiz	Xo‘ja ulming baraka	**Xo‘jaulming** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari

					talablariga muvofiq.
10.	Qabriston	Quruqsoy MFY	nomsiz	Uch do‘lana	**Uchdo‘lana** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Qabriston	Quruqsoy MFY	Hezalak	Beshariq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Qabriston	Galabek MFY	nomsiz	Davtosh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. (“Dav”- katta,ulkan. Qishloq atrofida katta hajmli toshlar joylashgani uchun qabriston nomi shunday atalgan).
13.	Qabriston	Chambil MFY	nomsiz	Oqchova	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. (“Oqchova”- toshdan hosil bo‘lgan tepalik ma’nosini bildiradi. Tog‘lik hudud bo‘lgani uchun qabriston nomi shunday atalgan
14.	Qabriston	Chambil MFY	nomsiz	Novqishloq	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
15.	Qabriston	Chambil MFY	nomsiz	Ko‘rbuloq	Qonun hujjatlari talabiga muvofiq.(Qabriston hududida buloqlar mavjud bo‘lib, buloqning ko‘zlari sezilmaydi. Shunga ko‘ra qabriston

					Ko‘rbuloq nomi bilan atalgan).
16.	Qabriston	Tarag‘ay MFY	nomsiz	Yuqori Tarag‘ay	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. (“Tarag‘ay”- o‘rmonsiz, taqir joy ma’nosini anglatadi.Qadimdan qishloq nomi Tarag‘ay deb yuritilgani uchun qabriston ham shunday nomlangan).
17.	Qabriston	Obod MFY	nomsiz	Mahmud ota	**Mahmudota** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Qabriston	Paxtaobod MFY	nomsiz	Tuyma	**Tugma** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish” i qoidalari asosida normallashtirildi.Qonun hujjatlari talabiga muvofiq. (Qishloq o‘rtasidagi tepalik xalq tilida tugmaga o‘xshatilgani uchun Tuyma deb nomlangan).
19.	Qabriston	Chambil MFY	nomsiz	Eski kiyikmozor	**Eski Kiyikmozor** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida

					normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	Qabriston	Navoiy MFY	nomsiz	Polvonxon eshon bobo	**Polvonxoneshon** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	Qabriston	Chorshanba MFY	nomsiz	Xo‘ja Abdiqahhor	**Xo‘ja Abdiqahhor** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga mos.
22.	Qabriston	G‘allachi MFY	nomsiz	Yuraktepa Oltintepa	Ushbu berilgan takliflardan Oltintepa nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
23.	Qabriston	Qo‘rg‘ontepa MFY	nomsiz	Qo‘rg‘ontepa	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
24.	Qabriston	Gulobod MFY	nomsiz	Qulchan	**Yuqori Qulchan** - “ Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. (“Qulchan”- qarluq qabilasi urug‘laridan birining nomi).

25.	Qabriston	Farovon kelajak MFY	nomsiz	Yuqori Qoraqiya	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
26.	Qabriston	Yangi qurilish MFY	nomsiz	Shurmasoy	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. Qabriston yonidan soy oqib o‘tadi. Shu joy nomidan olingan.
27.	Qabriston	Mirzatup MFY	nomsiz	Mirzato’p	**Mirzato‘p** - “Geografik obyektlar nomlarining yozilish”i qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
28.	Qabriston	Beshbuloq MFY	nomsiz	Uyshun	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
29.	Qabriston	Sohil MFY	nomsiz	G‘arovli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq